



# HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sanayeva Raxima Amirqulovna<sup>1</sup>, Turakulova Yulduz Xushmurodovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup>*SamVXTXQTMOHM kimyo fani o'qituvchisi*

<sup>2</sup>*Samarqand viloyat Pastdarg'om tumani 44-maktab kimyo fani o'qituvchisi*

## “Olov-yong`in manbai”

**Annotatsiya.** Olov,yong'in chiqish sabablari,yong'inning oldini olish haqida tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Olov, yong'in, xavfsizlik, o't o'chirish xizmati,is gazi, karbonat angidrid.

### “Olov-yong`in manbai”

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi davlat kelajagini ta'minlovchi omildir. Shunday ekan, ularning hayoti va faoliyati muhofaza etilishi va xavfsizligi ta'minlanishi kerak. O`quvchilarga xavfli vaziyatlarining oldini olish bo`yicha tushuntirish ishlarini olib borish bugungi kunda xalq ta`limi muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Maktablarda 5-11- sinflar uchun o`quv dasturi asosida o`tilgan har bir dars o`quvchilarni sodir bo`lishi mumkin bo`lgan ekstremal holatlarning oldini olish, hamda sodir bo`lgan vaziyatlarda to`g`ri harakat qilishga tayyorlab boradi.

Raspublika ta`lim markazi mutaxassislari tomonidan 7-sinf kimyo darsligida rivoja qilinadigan xavfsizlik qoidalari bilan birga, yong'in chiqish sabablari, uni oldini olish, yong'inning shikastlovchi omillari haqida o`quvchilarga ma'lumot berilishi kerak.

Ma'lumki, bolalikdan sizga oilada xavfsizlik qoidalari o`rgatib boriladi. Jumladan, uy-ro`zg`or buyumlaridan extiyotsizlik bilan foydalanish natijasida (elektr




jihozlari, gaz, pichoq, gugurt va h.k.lar) ko`ngilsiz hodisalarga olib kelishi mumkinligi haqida bilasiz.

“Olov – yong`in manbai” xususida suhbatlashib, uni keltirib chiqish sabablari va oldini olish yo`llarini o`rganamiz.

### ***Yong`inning o`zi nima?..***

Yong`in – insonlar hayoti va sog`ligiga tahdid soluvchi, moddiy boyliklar yo`q qilib tashlanishiga sabab boluvchi nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayonidir.



**Yong`inlar uy-joylarda, maktabda odamlarning beparvoligi, ya`ni yong`in xavfsizligi qoidalari va me`yorlarini bilmasliklari natijasida sodir bo`ladi.** Yong`in sodir bo`lishini oldini olish uni o`chirishdan ko`ra osonroqdir. Buning uchun yong`in xavfsizligi qoidalariга rioya qilish lozim.

### ***Yong`inni yuzaga keltiruvchi sabablar...***

-yong`in xavfsizligiga rioya qilmaslik,

-joylarda yong`in chiqishiga sabab bo`luvchi yengil alanga oluvchi moddalar va buyumlarni issiqlik manbai yonida saqlash,

-olov yoqishda yoqilg`i suyuqliklaridan foydalanish,

-elektr asboblarini nazoratsiz qoldirish natijasida tarmoqlar va uskunalardagi qisqa tutashuv,

-yong`in xavfi mavjud joylarda gulxan yoqish,

-yuvilgan kiyimlarni gaz plita ustida quritish,

-olovdan extiyotsizlik bilan foydalanish,

-pirotexnika vositalari,

-gugurtni bolalar qo`li yetadigan joyda saqlash, yonib turgan gugurt cho`pi va tamaki qoldig`ini istalgan joyga tashlash,

-shuningdek, xavfli tabiiy jarayonlar (yashin va b.) va

-ataylab o`t qo`yish yong`in sodir bo`lishiga sabab bo`lishi mumkin. (mavzuni tushuntirish vaqtida xavfli holatlar, yong`in vaqtida qutqaruв jaryonlari tasvirlangan rangli rasmlardan foydalanish mumkin).

**Yodda tuting: Yong`inni dastlabki soniyalarida bir piyola, ikkinchi soniyada bir chelak suv bilan o`chirish mumkin bo`lsa, bir necha daqiqadan so`ng esa bir necha tonna suv etmay qolishi mumkin.**

### ***Yong`in sodir bo`lgan vaziyatda...***

Yong`in sodir bo`lgan vaziyatda oqilona o`ylab tez harakat qilish zarur. Eng avvalo, o`t o`chirish (01) xizmatiga (uyda ota-onaga, maktabda o`qituvchi yoki direktorga vaziyat haqida) xabar bering.

Yong`in sodir bo`lganda darhol gaz va elektr manbaini o`chiring. Eshik va derazalarni ochmang, yong`in kuchayib ketishi mumkin. Yonayotgan binodan tezlikda chiqib keting, ustingizga namlangan choyshab tashlab oling. Agar odamning kiyimlari yonayotgan bo`lsa, olovni o`chirish uchun ustiga qalin mato tashlab, yerga



yotqizib dumalating. Tutunli xonada yerga egilib harakat qiling. Tutun atrof-muhitga tarqalib tirik organizmlarning halokatiga olib kelishi mumkinligini unutmang.

Bu borada quyidagilarni bilib olishingiz foydadan holi emas. Har xil materiallar yonganda ajralib chiqadigan zaxarli moddalar va ularning kontsentratsiyasi har turlicha bo`ladi. Ko`pgina organik moddalar yonganda ulardan is gazi (CO) va karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) ajralib chiqadi. Shuningdek, suv bug`i, bug` ishlov berilgan rezina yonganida uglerod (C), karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) va oltingugurt gazi (SO<sub>2</sub>) ajraladi. Yong`in paytida sodir bo`lgan moddalar gazsimon holatda atrofga tarqaladi va atmosferada kimyoviy o`zgarishga uchrab, ya`ni kislotali yomg`irlar va boshqa moddalar hosil qilib, biosferaga salbiy ta`sir qiladi.

### ***Yong`inning shikastlovchi omillari...***

Zaxarli tutunlarning ajralib chiqishi, portlash yoki bino va inshootlarning qulab tushishi hamda kimyoviy, radiatsiyaviy zararlanishlar *yong`inning shikastlovchi omillari* hisoblanadi. Yong`indan so`ng jabrlanganlarga yordam berish, qutqaruvchilarining ko`rsatmalariga amal qilish zarur. (imkoniyat bo`lsa, “Olov – tilsiz yov” o`quv-filmi namoyish etiladi)

Mutaxassislarning fikricha, vaqtida hayot xavfsizligi bo`yicha tayyorgarlikdan o`tgan inson xavfli vaziyatlarning oldini oladi va sodir bo`lgan xavfli vaziyatlar vaqtida o`ziga, atrofdagilarga yordam bera oladi. Rim yozuvchisi Senekanining shunday iborasi bor: “Hech kim umri qisqa bo`lib tug`ilmaydi, uni o`zimiz qisqartiramiz, umrimiz tugal, ammo uni biz elgasovuramiz. Agar oqilona foydalanilsa, umr juda uzoq davom etadi...”.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

- 1.7-shnf kimyo darsligi.62-64-betlar
- 2.D.Yormatova.Sanoat ekologiyasi.Toshkent 2008y
- 3.H.Tursunov, T.Rahimova Ekologiya.Toshkent Chinor